

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING AHAMIYATI VA YO‘NALISHLARI

Saidova Dildora Nurmatovna

Murodov Jahongir Husan o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar kirib bormagan sohani topish qiyin. Raqamali texnologiyalarning jadal sur'atlarda rivojlanishi transformatsiya (raqamli transformatsiya) ni samarali va tez suratlarda amalga oshirishni dolzarbligini oshirmoqda. Buni davlat tomonidan qabul qilingan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib boorish" maqsadi qo'yilgan va Prezidentimizning "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur vas hart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan boorish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda"¹ degan so'zlaridan ham raqamli iqtisodiyot va raqamli transformatsiya naqadar muhimligini bilib olish mumkin.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlardagi olimlar tomonidan raqamli transformatsiya chuqur o'rganilgan va raqamli transformatsiya turlicha tushuntirilgan. Ba'zi olimlar fikriga ko'ra, mijozlarga asosiy e'tiborni kuchaytirish va qiymatni differentsiyalash, xarajatlar samaradorligi, atrof-muxit barqarorligi, ishchilar xavfsizligi, ishlab chiqarish umumiy samaradorligi, bozor konsentratsiyasi va globllashuv, qaror qabul qilish jarayonini yengillashtirish kabilar sanoat

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60 son farmoni

tarmoqlarida raqamli transformatsiyaning drayverlari bo'lib xizmat qiladi²

C.Matt va boshqalarnig fikriga ko'ra "Xar qanday tashkilotning raqamli transformatsiyalashuvi strategiyasi texnologiyalardan foydalanish, qiymat yaratsih jarayonidagi o'zgarishlar, tuzilmaviy o'zgarishlar va moliyaviy jixatlarini qamrab olishi zarur"³.

Raqamli transformatsiya - bu biznesni sezilarni darajada takomillashtirish (mijozlar tajribasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, operatsiyalarni soddalashtirish yoki yangi biznes modellarini yaratish kabi) uchun yangi raqamli texnologiyalardan (ijtimoiy media, mobil, tahliliy yoki o'rnatilgan qurilmalar) foydalanishdir⁴. Raqamli transformatsiya – bu raqamli texnologiyalarni biznesning barcha tarmoqlariga integratsiyalashuvi bo'lib, ish uslubi va mijozlarga qiymat yetkazib berishni tubdan o'zgartiradi⁵. Yuqoridagi berilgan tariflardan kelib chiqqan holda raqamli transformatsiya – bu raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotda qo'lanilish darajasini oshirish bilan bir qatorda iqtisodiyotdagi ishchi kuchini ushbu texnologiyadan foydalansihga moslashtirshdir.

Raqamli transformatsiya korxonaning bo'limlarida qanday o'zgarishalr olib kelishini ko'rib chiqaylik. Sotuv bo'limida raqamli transformatsiya – bu sotuv jarayonlarini odatiy bozorlardan onlayn platformalar(marketplacelar)ga o'tkazish orqali korxonalar sotuv bo'limidagi hodimlar sonini qisqartirshi va bu orqali sotish xarajatlarini qisqartirish mumkin. Sotuv jarayoniga CRM(Custumor Relationship Management) dasturlarini o'rnatish orqali iste'molchilardan katta ma'lumotlarni to'plash va bu ma'lumotlarni tahrirlash orqali mahsulot va xizmat sifati bo'yicha iste'molchialar-ning fikrlarini o'zrganish mumkin.

Marketing bo'limida raqamli transformatsiya – internetdan foydalangan

² Lammers, T., Tomidei, L., & Regattieri, A. (2018). What Causes Companies to Transform Digitally? An Overview of Drivers for Australian Key Industries. 2018 Portland International Conference on Management of Engineering and Technology (PICMET).

³ Matt, C., Hess, T., & Benlian, A. (2015). Digital Transformation Strategies. *Business & Information Systems Engineering*, 57(5), 339–343.

⁴ Liere-Netheler, K., Vogelsang, K., Packmohr, S., & Hoppe, U. (2018). Towards a frameworkfor digital transformation success in manufacturing. In: Proceedings of the 26thEuropean Conference on Information Systems, Portsmouth, UK.

⁵ Gebayew, C., Hardini, I. R., Panjaitan, G. H. A., Kurniawan, N. B., & Suhardi. (2018). A Systematic Literature Review on Digital Transformation. 2018 International Conference on Information Technology Systems and Innovation (ICITSI). doi:10.1109/icitsi.2018.8695912.

holda mahsulotni va brendi rekalmi qilish, onlayn dasturlar yordamida bozorni o'zganish va marketing strategiyani ishlab chiqish tushuniladi. Eski marketing usullar(gazetalar, bannerlar, televizor va radio orqali mahsulotni reklama qilish)dan farqli o'laroq mijozga yo'naltirilgan reklamalarni yaratish mumkin. Bunda internetdagi sahifalaringizga tashrif buyurish statistikalari orqali sizning asosiy mijozlaringiz kim ekanligini bilib olishingiz mumkin va marketing bo'limiga sarflagan pulingizni samaradorlik darajasi ortadi va an'anaviy marketingga nisbatan kamroq vaqt sarflanadi.

Ishlab chiqarish bo'limida raqamli transformatsiya – odamlar qo'l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish liniyalari o'rniga robotlardan foydalanilishi tushuniladi. Buning asosiy avfzaliklaridan bir - ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz 24/7 davom etishidir. Ikkinchidan, robotlardan foydalanish aniqlikni va mahsulot sifatini oshiradi. Ishlab chiqarishdagi mehnat haqqi uchun xarajatlari qisqartirilib, mahsulot tannarxi pasayadi. Past narxlardagi sifatli mahsulotlar korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi. Kadrlar bo'limida raqamli transformatsiya – hodimlar haqida ma'lumotlarni katta ma'lumotlar bazasida yig'ish orqali amalga oshiriladi. Ma'lumki hodimlar haqida ma'lumotlarni saqlash katta mablag' va joy talab qiladi. Bundan tashqari ulardan kerakli ma'lumotlarni topish ham ko'p vaqt va mehnat talab qiladi. Bu-ning oldini olish uchun ma'lumotlarni raqamlashtirish zarur. Ma'lumotlar bazasidan istalgan paytda istalgan ma'lumotni topish mumkin va favqulotda hollatlar uchun bu ma'lumotlar bir nechta server kompyuterlar va bulutli omborlarda saqlanish mumkin.

Yuqoridagi avfzaliklarga qaramasdan, raqamli transformatsiyaning ham ba'zi bir kamchiliklari mavjud. Shulardan:

- raqamli transformatsiyani amalga oshirish xarajatlari yuqoriligi;
- raqamli transformatsiya qilish uchun kadrlarning yetishmasligi;
- kadrlarni qayta tayyorlash zarurati;

Xulosa qiladigan bo'lsak, raqamli transformatsiyaning ba'zi bir kamchiliklari bo'lsa ham u korxonaning raqobatbardoshligini, rentabellikini, shafofligini oshiradi.

Xozirgi paytda raqamli transformatsiya hukumat organlarida ham jadal suratlarda amalga oshirilmoqda. Hukumatda raqamli transformatsiya bu – davlat tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarni raqamli va axborot texnologiyalri orqali taqdim qilish tushunniladi. Bularga My.gov.uz yagonoa davlat xizmatlari markazi, My.soliq.uz Davlat soliq qo'mitasining websaytini misol sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Hukumat tizimini raqamlashtirishdan asosiy maqsad – bu adolatning shaffofligni ta'minlash, ya'ni poraxo'rlik, qog'ozbozlik, majlisbozlik kabi holatlarning oldini olish va barcha davlat organlarini yagona bir tizimga birlashtirish hisoblanadi.

Hukumatni raqamli transformatsiya qilish uchun virinchi navbatda yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lumotlar bazasini tuzsh talab etiladi. Ma'lumotlar bazasi tayyor bo'lgandna so'ng davlat ximatlri birma-bir raqamli ko'rinishga o'tkazib boriliadi. Har bir raqamli ko'rinishga o'tgan xizmatlar yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilinadi. Vazirliklar o'rtasida ham integratsiya amalga oshiriladi. Shu orqali butun bir hukumat ekotizimi paydo bo'ladi.

Hukumatdagi raqamli transformatsiya poraxo'rlik, qog'ozbozlik, majlisbozlik kabi holatlarni oldini olishi mumkin, ammo buning ham ba'zi bir kamchiliklari bor. Bularga:

- yangi ekotizimda ishlay oladigan xodimlarni tayyorlash yoki qayta tayyorlash;
- yangi tizimning ishlashida ba'zi bir kamchiliklar kelib chiqishi mumkin.

Raqamali transformatsiya hozirgi kunda juda dolzarb mavzulardan bir hisoblanadi. Raqamli transformatsiya butun dunyodagi biznesni olib obrish va boshqarish bo'yicha qarashlarni o'zgartirmoqda.

Raqamli transformatsiya orqali oldin o'ylab ko'rilmagan rivojlanishga erishilmoqda va bu yanada rivojlanishni davom etadi.

Shu sababli muvaffaqiyatli biznes tuzish uchun raqamli transformatsiyani amalga oshirishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60 son farmoni
2. Lammers, T., Tomidei, L., & Regattieri, A. (2018). What Causes Companies to Transform Digitally? An Overview of Drivers for Australian Key Industries. 2018 Portland International Conference on Management of Engineering and Technology (PICMET).
3. Matt, C., Hess, T., & Benlian, A. (2015). Digital Transformation Strategies. *Business & Information Systems Engineering*, 57(5), 339–343.
4. Liere-Netheler, K., Vogelsang, K., Packmohr, S., & Hoppe, U. (2018). Towards a framework for digital transformation success in manufacturing. In: *Proceedings of the 26th European Conference on Information Systems*, Portsmouth, UK.
5. Gebayew, C., Hardini, I. R., Panjaitan, G. H. A., Kurniawan, N. B., & Suhardi. (2018). A Systematic Literature Review on Digital Transformation. 2018 International Conference on Information Technology Systems and Innovation (ICITSI). doi:10.1109/icitsi.2018.8695912.